



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 18-avgust

VII-13-99-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining 2025-yil 28-martgi VII-8-45-7-96-K/25 –sonli qarorining ilovasini o'zgartirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining 59-moddasi hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 22-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq o'n uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Devoni hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazining 2025-yil 14-iyuldagi 22-06/2876-sonli, O'zbekiston Nogironlar Assotsiatsiyasi 2025-yil 9-iyuldagi 18-sonli xatlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2025-yil 28-martdagi VII-8-45-7-96-K/25–sonli qarorining ilovasi mazkur qarorning ilovasiga asosan "Xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi ekspert guruhi tarkibi" tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2025-yil 28-martgi VII-8-45-7-96-K/25–sonli qarorining ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur Qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining reglament va deputatlik odobi-axloqi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.G'ulomov), Kotibiyat mudiri M.Teshayev zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani
Kengashining
2025-yil 18-avgustdagi

1-ilova

**Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashi huzuridagi ekspert guruhi
TARKIBI**

Ekspert guruhi raisi			
1.	NASRIDDINOV Jamshid To'liqinovich	—	Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashi raisi
Ekspert guruhi raisi o'rinbosari			
2.	TESHAYEV Muhiddin Xoliqulovich	—	Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashi kotibiyati mudiri
Ekspert guruhi kotibi			
3.	IMOMOV Eldor Tursunmurotovich	—	Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashi kotibiyati bosh mutaxassisi
Ekspert guruhi a'zolari			
4.	USMONOV O'tkir Raxmonovich	—	Kattaqo'rg'on "kecha va bugun" gazetasi bosh muharriri
5.	NURMANOVA Rano Jurayevna	—	Kattaqurg'on tuman tibbiyot birlashmasi Zarafshon oilaviy shifokorlik punkti mudiri
6.	MUSTAFAQULOV Baxtiyor Tilovovich	—	O'zbekiston Nogironlar jamiyati Samarqqand viloyati boshqarmasi Kattaqo'rg'on tuman nogironlar jamiyati bo'limi boshlig'i
7.	SUYUNOV Elbek Norbekovich	—	Kattaqo'rg'on tumani 95-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori
8.	AXMEDOV Qamariddin	—	O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasining Kattaqo'rg'on tumani bo'limi raisi, faxriy deputat
9.	BERDIYEVA Zaynab Fayzullayevna	—	Kattaqo'rg'on tumani 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori, Faxriy deputat
10.	ABDURAXMONOV Jasur Bekpulatovich	—	SamDU Kattaqo'rg'on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari